



TILSHUNOSLIKDA LISONIY PARADIGMATIK MUNOSABATLAR

Sharipova E'zoza Fazliddin qizi

Guliston davlat pedagogika instituti, Xorijiy til va adabiyoti

ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida olimlarning grammatik kategoriyalar uchun bildirgan fikrlari va bu kategoriyalar uchun asos bo'ladigan manbalarning bir-biridan farqli va o'xshash jihatlari hamda tilshunoslikdagi lisoniy paradigmatic munosabatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: paradigm, leksema, leksika, leksik-grammatik kategoriyalari, formal ko'rsatkichlar.

Morfologiya, umuman, so'z haqidagi ta'limot bo'lmay, balki so'zning grammatik tomonini tekshiradigan ilmdir.¹ Grammatik aspekt – so'zning bir tomoni, qulaylik uchun uni biz tekshirish obyekti sifatida ayrim ko'rsatamiz, aslida esa u so'zning boshqa aspektlaridan ajralmaydi. Qiyoslang: lug'at kitoblarida so'zlarni ayrim-ayrim, uzuq holda ko'rsatamiz: ularni yakka holda olib, turli xususiyatlarini tasvirlaymiz, holbuki, ular aloqa-aralashuv protsessida, tilning o'z funksiyasini bajarishida, nutqda boshqa so'zlar bilan bog'langan bo'ladi (Suv tiniq. Barglar shitirladi. Sen terimchisan) - ularning hayot yo'li shudir: «So'zning haqiqiy hayoti nutq ichidadir».

So'z tilning mustaqillikka ega bo'lgan, ayrim ma'no yo emotsiyalarni bildiradigan, fonetik va grammatik jihatdan shakllangan, tugallikka ega bo'lgan birligidir. Demak, so'z ma'no va shakllanish jihatidan yaxlitlikka, maxsuslikka ega: u semantik va fonetik, grammatik butunlikdir. Bu holat so'zning bir-biridan ajralmaydigan ikki tomonning - ma'no (ichki tomon) va tovush (tashqi tomon)ning birligidan iborat ekanligini bildiradi.

Tildagi so'zlarning strukturasi-ma'nosi va formasi bora-bora o'zgargan bo'lishi ham mumkin. Misollar: eski o'zbek tilida: o'ltur (o'ldirish va o'tirish ma'nolarida) -hozirgi o'zbek tilida: o'ldir va o'tir; so'rди, bitdi (eski o'zbek tilida) so'radi va bitdi (yozdi; hozirgi o'zbek tilida); eski o'zbek tilida o'linda, o'tkarur, yolg'uzun, sarg'arib, kishi to bo'lmasa oshiq shifo tilay keldim, sensizin, o'g'rin boqmoq - hozirgi o'zbek tilida: - oldida, o'tkazadi, yolg'iz, sarg'ayib, kishi oshiq bo'lmaguncha - kishi to oshiq bo'lmaguncha, shifo tilab keldim, sensiz, o'g'rincha boqmoq. Umuman, bu farqlanish, birinchidan, til taraqqiyotining turli davrlariga ko'ra, ikkinchidan, dialekt-shevalarga ko'ra, uchinchidan, stilistik xususiyatlarga ko'ra bo'ladi.

So'zning strukturasi turli tomonlarning o'zaro bog'langanligini leksik va grammatik ma'nolarning bir butunlik tashkil bo'lishida ham ko'ramiz.

So'zning leksik ma'nosi uning predmet, belgi kabilar haqidagi tushunchasini reallashtirishi - nimani anglatishidir. So'z, o'z leksik ma'nosidan tashqari, grammatik ma'noga ham ega bo'ladi. Masalan, kaptarlarni sevamiz gapidagi birinchi so'z parrandaning ma'lum bir tO'rini bildiradi, ikkinchi so'z esa shu bilan bog'langan harakatni bildiradi. Bu

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 1-қисм. Тошкент: Фан, 1975. – Б. 63.; Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: филол. фан. док.... дис. Тошкент, 2002. – 466.; Муслумонова Н.Р. Грамматик шаклда категориал ёндош ва ҳамроҳ маъно: Филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2007.



hodisa o'sha so'zlarning leksik ma'nosidir. Bu so'zlarning grammatik ma'nolari: kaptarlarni - tushum kelishikdagi, ko'plik formasidagi ot (qaysi so'z turkumiga kirishi, soni va kelishik formasi); sevamiz - birinchi shaxsning birligi formasidagi, hozirgi-kelasi zamoni ko'rsatuvchi, aniqlik maylidagi bo'lishli fe'l (qaysi so'z turkumiga kirishi, shaxs-soni, mayli va bo'lishli-bo'lishsizligi). Demak, so'z leksik va grammatik ma'nolarning birligidan iborat. Bularning birinchisi asosiy ma'no, ikkinchisi qo'shimcha ma'no sanaladi.

Leksik ma'no so'zning material qismi orqali ifodalanadi (so'zning material qismi - asosiy, leksik qismi), shuning uchun leksik ma'no ba'zan material ma'no deb ham yuritiladi. So'zning grammatik ma'nosi uning formal qismi orqali ifodalanadi (so'zning formal qismi - asosiy qismdan, o'zak-negizdan qolgan qismi), shuning uchun grammatik ma'no ba'zan formal ma'no deb ham yuritiladi. Leksik ma'no - so'zning asosiy qismining ma'nosi - leksikologiyada o'rganiladi, grammatik ma'no - so'zning formal qismining ma'nosi (grammatik ma'no va grammatik forma) esa grammatikada o'rganiladi (grammatik ma'noning ifodasi grammatik formadir). Misol keltiraylik: tollarni so'zida uchta morfema bor (morfema - so'zning ma'no bildiradigan eng kichik, bo'linmas qismlari): tolQlarQni, bu so'zning leksik ma'nosini tol qismi (o'zak) anglatadi (shu jihatdan u leksik morfema sanaladi), grammatik ma'nolarini -lar va -ni affikslari bildiradi (shu jihatdan ular grammatik morfema deyiladi). Grammatik ma'noning bundan boshqa ham ifodalanish usullari bor. Grammatik ma'noning ifodalanish yo'llari grammatik usul sanaladi: uni ifoda qiladigan affiks, yordamchi so'z kabilar grammatik vosita sanaladi. Bu vositalar (ko'rsatilgan tipdagi affikslar va yordamchi so'zlar) so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi (tolda, toldan, tolga kabi). Yasama so'zda shu so'zning leksik ma'nosi negizda bo'ladi («o'zak Q so'z yasovchi affiks» formasidagi qo'shilish negizni hosil qiladi). Bunday hollarda o'zak qarindosh so'zlarni birlashtiradigan umumiy qismni, umumiy ma'noni bildiradi. So'zning leksik ma'nosi o'zak negiz orqali ifodalansa, grammatik ma'no, ko'pincha, affiks orqali ifodalandi. Bu hodisa - grammatik ma'noning bunday vositalar orqali ifodalanishidan hosil bo'lgan forma - grammatik forma sanaladi. Grammatik forma ko'rsatilgan tipdagi vositalar orqali ifodalangan grammatik ma'nodir: grammatik formasiz grammatik ma'no yo'qdir. Chog'ishtiring; yoz-di-m, yoz-di-ng, yoz-di-k kabi ko'rinishlar yoz so'zining formalaridir. Yana: paxtani, paxtaning, paxtada, paxtadan, paxtaga. Aniqki, grammatik forma so'zning (bir so'zning) bir-biridan grammatik ma'nosi bilan farqlanadigan formal har xilliklaridir.²

Affiksatsiya, o'zak-negizlarga affiks qo'shish orqali har doim so'z formasi hosil bo'la bormaydi. Qiyoslang: 1) o'r-oq, o'r-im, ter-im, ter-im-chi; 2) o'r-di-k, ter-di-m, terimchi-ga: birinchi tipdagi misollarda affiks orqali yangi so'z yasalgan, bular - so'z yasovchi affikslar,

² Шаҳобитдинова Ш.Х. Грамматик маъно талқини хусусида: Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 24 б.; Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – Б. 298.; Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5. – Б. 17–20.; Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – 591 б.; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Бокиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 404 б.; Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Олий ўқув юрт. филология фак. талабалари учун дарслик. (У. Турсунов, А.Мухторов, Ш.Раҳматуллаев (Масъул муҳаррир Ш.Раҳматуллаев). Қайта ишланган ва тўлдирилган нашри. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.245.



ikkinchi tipdagi misollarda affiks orqali bir soʻzning turli formalari hosil qilingan, bular soʻz formasini koʻrsatuvchi affikslardir. Grammatikada forma yasovchi affikslar oʻrganiladi.

Bir forma yasovchi affiksning birgina grammatik maʼnoni ifodalashi shart emas; baʼzi bir affiks birdan ortiq grammatik maʼnoni ifodalaydi. Masalan, borsak soʻzidagi -k qoʻshimcha shaxs va son maʼnolarini koʻrsatadi; birinchi shaxs, koʻplik (chogʻishtiring: borsang: -ng ikkinchi shaxs, birlik).

Leksik va grammatik maʼno, grammatik forma hodisalari, ularning oʻzaro munosabati grammatik protsesslarning turli koʻrinishlarida sezilib turadi; soʻzning grammatik maʼnosining grammatik formaga qarab aniqlanishi, soʻzning qaysi turkumga kirishiga qarab, leksik maʼnoning maʼlum grammatik maʼnolari bilan bogʻlanishi (otlarda - kelishik, feʼllarda - tuslanish), leksik maʼnoning oʻzgarishi bilan soʻzdagi grammatik maʼnoning va formaning oʻzgarishi (masalan, ot «chogʻishtirish» formasiga ega boʻla oladi: tulkiroq, shaytonroq kabi) va maʼno bilan uning formal ifodasi birgalikda bir butunlik hosil qiluvchi, biri boshqasiz mavjud boʻlmaydigan, ajralmaydigan, ajralmas hodisalar boʻlib, ularning birligi grammatik kategoriyani tashkil qiladi.³

Grammatik kategoriya termini grammatik maʼnoga nisbatan teng. Masalan, otlarda koʻplik formasi uning birlik formasiga ziddir (koʻplik maʼnosi -lar qoʻshimcha orqali ifodalanadi, birlik esa bunday maxsus koʻrsatkichning yoʻqligi - nol forma bilan xarakterlanadi: bunday hollarda bir belgining yoʻqligi ham, boshqalariga nisbat qilganda, ajratuvchi belgidir), bu birlik-koʻplik formasidagi grammatik oppozitsiya son kategoriyasini tashkil qiladi (grammatik kategoriya shunday zid holdagi hodisalarning, grammatik oppozitsiyalarning, umumlashtiruvchi kategoriyasi sifatida boʻladi), kelishik formalarining yigʻindisi kelishik kategoriyasini tashkil qiladi; zamon kategoriyasi oʻtgan, hozirgi va kelasi zamon formalarini oʻz ichiga oladi. Demak, bir xil grammatik maʼnoni ifodalaydigan formalarning yigʻindisi grammatik kategoriyani tashkil qiladi. Yana bir misol: har bir kelishikning oʻz grammatik maʼnosi bor, umuman, kelishiklarning grammatik maʼnolari, grammatik formalari, kelishik kategoriyasini tashkil qiladi. Kelib chiqadiki, soʻzning har bir formasi bir grammatik kategoriyaga kiradi: shu umumiy hodisaning bir xususiy koʻrinishi boʻladi.

Bugungi kundagi oʻzbek tilshunosligida olimlarning grammatik kategoriyalar uchun bildirgan fikrlari va bu kategoriyalar uchun asos boʻladigan manbalarning bir-biridan farqli va oʻxshash jihatlari tahlilga tortildi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: филол. фан. док.... дис. Тошкент, 2002. – 466.
2. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – Б.

³ Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – Б. 298.; Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5. – Б. 17–20.; Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – 591 б.; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 404 б.



298.

3. Мусулмонова Н.Р. Грамматик шаклда категориал ёндош ва ҳамроҳ маъно: Филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2007.

4. Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5. – Б. 17–20.

5. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – 591 б.

6. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 404 б.

7. Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Олий ўқув юрт. филология фак. талабалари учун дарслик. (У. Турсунов, А.Мухторов, Ш.Раҳматуллаев (Масъул муҳаррир Ш.Раҳматуллаев). Қайта ишланган ва тўлдирилган нашри. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.245.

8. Ўзбек тили грамматикаси. 1-қисм. Тошкент: Фан, 1975. – Б. 63.

9. Шаҳобитдинова Ш.Х. Грамматик маъно талқини хусусида: Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 24 б.